

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI AQLI ZAIF O‘QUVCHILARDA SOG‘LOM
TURMUSH TARZI HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Abdreimova Nodira

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: *mazkur maqolada aqli zaif o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik muammolari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotchi olimlarning bu masala yuzasidan olingan xulosalari asosida muammolarga yechim berilgan. Kichik maktab yoshidagi aqli zaif o‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlarga to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *kichik maktab yosh, aqli zaif, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik-psixologik muammolar, organism, o‘quvchi.*

Sog‘lom turmush tarzi muammolarini dolzarbligi inson sog‘lig‘i xolatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va xarbiy xarakterdagi xavfini oshishi, inson organizmiga ijtimoiy xayotni murakkablashuvi kabi omillarning ta‘sirining ortishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlarda aqli zaif o‘quvchilarning morfo-funksional rivojlanishi va sog‘lig‘ining axvoli sog‘lom tengdoshlariga nisbatan farq qilishiga oid ma‘lumotlar mavjud. Jumladan, A.A.Dmitriyev yordamchi va umumta‘lim maktab o‘quvchilarining jismoniy rivojlanish qo‘rsatkichlarini taqqoslab, aqli zaif o‘quvchilarida mazkur ko‘rsatkichlar nisbatan past darajadiligini ko‘rsatib o‘tgan.

Ye.M.Vaynrub aqli zaif o‘quvchilarning ishlash qobiliyati sog‘lom tengdoshlariga nisbatan quyi darajada deya ta‘kidlab, buni mazkur o‘quvchilarda vegetativ funksiyalarni spetsifik rivojlanmay qolishi bilan izohlaydi.

V.I.Berzin yordamchi maktab o‘quvchilari sog‘lig‘ini kompleks tarzda baxolash natijasida, mazkur gurux bolalarida turli kasalliklar bilan kasallanishni umumiy darajasi yuqori ko‘rsatkichda ekanligi (o‘rtacha 100 ta boladan 46,8tasi), ayniqsa, bu kasalliklar orasida o‘tkir respirator kasallik ulushi kattaligi (turli maktablarda 25,3 dan 71,4%gacha)ni aniqlagan.

J.I.Shif aqli zaif o‘quvchilar idrokini o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab, ularning orasida ko‘ruv a‘zolarining kamchiliklariga ega bolalar ko‘p uchrashini ta‘kidlagan. Amerikalik psixolog Lovening ma‘lumotlariga ko‘ra, u



tadqiq etgan intellektual kamchiliklarga ega bolalarning uchdan birida ko'ruv kamchiliklari kuzatilishini aniqlagan. [1.190-193]

A.A. Dmitriev va S.I. Venevsevlarning ta'kidlashicha, turli sabablarga ko'ra markaziy asab tizimini organik va funksional zararlanishlari natijasida aqli zaif o'quvchilar psixik va jismoniy rivojlanishidagi xilma xil kamchiliklar kuzatiladi. Shu bilan birga, mazkur o'quvchilarda yurak-qon tomir, endokrin, nafas va boshqa tizimlaridagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi. [2.32]

Maxsus tadqiqotlar asosida yordamchi maktab o'quvchilari sog'lom tengdoshlariga nisbatan jismoniy jixatdan zaif, gavda tuzilishidagi kamchiliklar, infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishga yuqori darajada moyillik ko'proq kuzatilishi asoslangan. [3.49-51]

L.P.Ufimsevaning tadqiqotlari natijasida, aqli zaif bolalar sog'liq xolati yomonlashish tendensiyasiga ega bo'lib, bu o'z navbatida o'quv jarayonidagi korreksion ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda bitiruvchilarning ijtimoiy moslashuvini murakkablashishiga olib kelishi yoritilgan. Ye.Tkachenkning fikricha, mazkur gurux o'quvchilari sog'liq xolatiga turli xil omillar ta'sir ko'rsatib, ularning 20%dan ortig'ini maktabning ichki muxiti bilan bog'liq omillar tashkil etadi.

Maktab o'quvchilarining sog'lig'ini yomonlashuvi “maktab” patologiya shakllari(ko'rish va gavda tutish buzilishlari, vegetativ difunksiya, didaktogeniya va x.z.)ni ommaviy ta'sirini oshishi bilan bog'liqdir. Mazkur “maktab” patologiyalarining paydo bo'lishiga aqli zaif o'quvchilarning bir qator psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olmaygan xolda yordamchi maktab o'quv jarayonini tashkil etish sabab bo'lib, u o'z o'rnida o'quvchilar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ta'lim jarayoni samaradorligini pasayishiga olib keladi. [4.4-8]

Aqli zaif bolalarda “maktab” patologiyalarining yuzaga kelishida somatik zaiflashish etakchi ahamiyatga ega. Olimlar tomonidan psixik rivivojlanishni susayishini somatogen genezini farqlab, bunda somatik zaiflashuv natijasida bolada astenik xolat rivojlanib, u o'z navbatida o'quv materialini o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir qator olimlar mazkur gurux bolalarida jismoniy va aqliy mehnat bajarish jarayonidagi kuzatiluvchi yuqori darajadagi toquvchanlikni mushaklar ishlash qobiliyatini pastligi, yurak qon tomir hamda nafas olish tizimlari vegetativ regulyatsiyasining buzilishi bilan bog'laydilar.[5.360]

Yozuv va o'qish jarayonida akkomodatsion apparatni ixtiyorsiz toliqishi ko'rishdagi kamchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Aqli zaif bolalar umumiy mushak tizimini zaiflashuvi turli ko'rinishlardagi patologiyalarga moyilligini



yuzaga keltiradi. Xususan, u bola perseptiv imkoniyatlarini yirik kamchiliklariga sabab bo'lib, predmetlarni fazoviy-metrik jixatdan idrok etish, shakli va xajmini aniq baxolash ko'nikmalarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. L.P.Ufimsevaning fikricha, aqli zaif o'quvchilarda “maktab” patologiyalarining yuzaga kelishi miyaning giperaktivlik omili bilan ham bog'liq bo'lib, u mo'ljal olish reaksiyalarini sust namoyon bo'lishi, asab tizimi jarayonlarini patologik inertligi, himoya rejimiga moyillikda namoyon bo'ladi. Neyrodinamikaning mazkur xususiyatlari aqli zaif bola bilish va xulq-atvor faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi hamda maxsus ta'limni tashkil etishda ularga aloxida e'tibor bergan tarzda inobatga olishni talab etadi. Aks xolda mazkur guruh o'quvchilarida moslashtirilmagan pedagogik ta'sir natijasida negativ psixik xolatlar yuzaga kelishi mumkin. [6.82-91]

A.A.Yarulovning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatida psixik zo'riqishni salbiy shakllarini asosiy manbasi bolaning extiyoj, imkoniyatlari hamda unga qo'yiladigan pedagogik talab darajasi orasidagi ziddiyat bo'lib, uning mazmunini “bor” va “zarur” o'rtasidagi farqda aks etadi. Xaddan ortiq yuqori talablarni qo'yish natijasida o'quvchi doimo zo'riqish xolatida bo'lib, o'z omadsizliklarini og'ir qabul qila boshlaydi. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonini regulyatsiyasi hamda o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiyaning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bola shaxsini rivojlanishi va psixik salomatligi xolatida aks etadi. [7.108]

L.P. Ufimseva bir qator tadqiqotlar o'tkazish natijasida aqli zaif bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoni ularning sog'liq xolati bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga kelgan. Jumladan, ta'lim jarayonini samaradorligi aqliy ish qobiliyati ko'rsatkichi bilan bog'liqligi aniqlangan: o'qish samaradorligi past o'quvchilar o'qish samaradorligi yuqori bo'lgan o'quvchilarga nisbatan ko'proq dars qoldirishlari aniqlangan. Demak, intellektual kamchiliklarga ega o'quvchilarda kuzatiluvchi somatik kasalliklar bir tomondan organizmni astenizatsiyasi (ishlash qobiliyatini pasayishi) orqali, ikkinchi tomondan esa kasallik oqibatida darslarni qoldirish natijasida kelib chiquvchi pedagogik qarovsizlik orqali o'quv dasturini o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. [8.208]

Xulosa qilib aytish mumkin-ki, yordamchi maktab o'quvchilarning samarali ta'lim olishi va shaxsini rivojlanishi ularning sog'liq xolati bilan bog'liq. Korreksion ishda sog'liqni saqlash va sog'liqni rivojlantiruvchi yo'nalishlarni faollashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Qo'shimcha ta'rizda shuni aytish lozimki, tug'ma yoki orttirilgan kasalliklarga ega bo'lmagan inson sog'ligini avvalambor, saqlash va mustaxkamlash, kasalliklarga ega inson salomatligi



ega korreksiyaga muhtojligini esda tutish muhimdir. Sogʻlom turmush tarziga rioya qilish imkoniyati koʻp xollarda inson salomatligini real xolati bilan bogʻliq. Aqli zaif bolalarda sogʻlom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish – bu mazkur guruh bolalari kundalik xayotiga sogʻliq uchun foydali boʻlgan yangi xulq-atvor shakllarini kiritishdir. Aqli zaif bolalarni yordamchi maktabda taʼlim olishi va shaxsini rivojlanishi ularning sogʻliq xolati bilan bogʻliqdir. Korreksion ish tizimida sogʻliqni saqlovchi va sogʻliqni mustaxkamlovchi yoʻnalishlarni faollashtirish orqali taʼlimiy-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishga taʼsir koʻrsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дмитриев А.А., Жуковин И.Ю. Некоторые концептуальные положения валеологической работы в специальной школе//Московские педагогические чтения. Актуальные проблемы специальной педагогики и специальной психологии. 1999. с. 190 - 193.

2. Дмитриев А.А. Организация двигательной активности умственно отсталых детей. М.: Советский спорт, 1991. 32с.

3. Уфимцева Л.П., Венсловене Н.Н., Окладникова Т.К., Искрова Л.В., Зависимость успешности обучения учащихся специальной школы от состояния их здоровья//Проблемы диагностики, коррекции, валеологии в специальном (коррекционном) образовании. Сборник статей. Красноярск: Издательство КГПУ. 1996. с. 49 - 51.

4. Ткаченко Е. Гуманизация Российского образования//Народное образование. 1995. №6. с. 4 - 8.

5. Психологическая диагностика детей и подростков. Учебное пособие для студентов/Под. ред. К.М. Гуревича и Е.М. Борисовой. М.: Международная педагогическая академия, 1995. 360с.

6. Уфимцева А.П. Педагогические подходы к достижению коррекционно-оздоровительного эффекта в процессе школьного обучения детей// Диагностика, коррекция, валеология в специальном (коррекционном) образовании. Красноярск: РИО КГПУ. 1999. с. 82 - 91.

7. Ярулов А.А. Индивидуально-ориентированная система обучения. Красноярск. 1998. 108с.

8. Соковня-Семенова И.И. Основы здорового образа жизни и первая медицинская помощь: Учебное пособие для студентов средних педагогических учебных заведений. 2-е издание, стереотип. М.: Издательский центр «Академия». 2000. 208с.



9. N. Q. Abidova Autizm spektrli bolalarni o`qitish va tarbiyalash/o`quv qo`llanma. Toshkent – 2023 y.
10. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA //INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS." International Scientific and Current Research Conferences. – 2022.
11. Qutbiddinov A. N. THE TECHNOLOGY OF FORMING GEOMETRIC CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS WITH INTELLECTUAL DEFECTS BASED ON THE INNOVATION IDEA" INTEGRATION CLUSTER" ON THE BASIS OF INTERDISCIPLINARY RELATIONSHIPS //International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – C. 241-247.
12. Abidova, N. K. (2023). Psychological and pedagogical study of children with autism. *Oriental Journal of Education*, 3(03), 61-65.
13. Qutbiddinov, A. N. (2022). Technology of forming geometric concepts in primary class students with intellect defects on the basis of "integration Cluster". *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 6461-6466.
14. Nazokat, A. (2023). Autizm spektori buzilgan o`quvchilarning bilish faoliyatining o`ziga xos xususiyatlari. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 412-415.
15. Abidova, Nazokat. "Positive effects of formation of knowledge, skills and skills on the basis of interdisciplinary relations." *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 2505-2510.
16. Qutbiddinovna A. N. AUTIZM SPEKTORLI BOLALARDA IJTIMOYIY-MAISHIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH: doi.org/10.5281/zenodo.10555394 //ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI. – 2024. – T. 1.No. 1.
17. Obidova, B., & Abidova, N. Q. (2023). RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUGAT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH. QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 417-419.
18. Abdupattayeva, D., and N. Q. Abidova. "IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMGA KIRITISH UCHUN ULARNING OTA-ONALARINI TAYYORLASH YO`LLARI." QO`QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 758-760.



19. No‘monjonova, R., & Abidova, N. Q. (2023). IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 448-450.

20. Sharobidinova F., Abidova N. Q. AUTIZMGA EGA BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O‘RGANISH //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 761-763.

21. Ubaydullayeva M., Abidova N. Q. O‘ZBEKISTONDA AQLI ZAIF BOLALARNI ERTA TASHXIS QILISH MUAMMOLARI //QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – C. 764-766.

